

Jamoalarga eslatma. Boshlovchi savol tartib raqamini e'lon qilganidan so'ng aytilgan yoki aytilmagan barcha jumlalar bevosita savolga aloqador. Boshlovchi tomonidan aytilgan jumlalar savolga aloqasi bo'lmasa, bu haqida alohida ta'kidlab o'tiladi. Savollar izohlarini diqqat qilib tinglashni unutmang. Shuningdek aniq qilib yozib bering, 2 so'z yoki 1 so'zdan iborat javobbdegan holatlarga diqqat qiling. Savol formasiga mos kelmaydigan javob noto'g'ri hisoblanadi. Savol javobiga aloqasi bo'lman har qanday so'z javob varaqasida yozilgan bo'lsa javoblar qabul qilinmaydi. Demak hamma tayyor bo'lsa

I tur

1. Savol matnidagi 1 so'zdan 2 o'rinda bir nechta harflar tushgan.

19-asr o'rtalarida ba'zi Britaniya qasrlarida OTlar kiyim dazmollash, supurish, ovqat olib kelish, shamlarni yoqish kabi ishlarni qilishgan. OT malay tilidan "o'rmon odami" degan ma'noni bildiradi

Savol: Tushirib qoldirilgan harflarni tiklab so'zni asl holida yozib bering.

Javob: Orangutan.

Izoh: Aristokratlar orasida orangutan xizmatkorlarini yollash urchga kirgan.

2. Lixtenshteynda 10 ga yaqin IKS bo'lgani sabab, oshpaz ishdan bo'shatilga va restoran xizmatlaridan foydalanishga o'tilgan. Mashhur Xlar qatorida Nelson Mandela ham bor.

Savol: IKSni toping.

Javob: Mahbus.

Izoh: Lixtenshteynda mahbuslar juda kam, shuning uchun oshpaz yollagandan ko'ra restorandan ovqat buyurtma qilish arzonga tushadi.

3. Savolda "Baliq bozori" so'zları boshqa ikki so'zning o'rnida keladi.

2008-yilda Britaniya hukumati Folkland orolida joylashgan Baliq Bozorini qishloq xo'jaligi hududining atigi 0.1 foizini tashkil etgani uchun yo'q qilish iqtisodiy jihatdan samarali bo'lmasligini aytadi.

Savol: Almashgan 2 so'zni toping.

Javob: Mina maydoni.

Izoh: Orolorda Buyuk Britaniya va Argentina o'rtasidagi Folkland urushidan qolgan minalangan maydonlar hali ham mavjud. Minalar maydonlarining umumiy yuzasi kichik va ularni yo'q qilish ma'lum bir xavfni o'z ichiga olganligi sababli, hukumat minalarni tozalashdan voz kechishga qaror qilishgan.

4. U vafot etganida AQSh prezidenti Bill Clinton U o'z irodasi ila bir joyda qo'zg'almay o'tirishi bizga hurriyat nimaligini o'rgatib ketdi deb aytgan edi. Uning atirgullarga to'la bog'i borligi haqida ma'lumot topilmadi.

Savol: U kim?

Javob: Roza Parks.

Izoh: Qora tanli ayol hisoblangan Roza Parks avtobusda oq tanli insonga joy bermaganligi AQShda qora tanlilarning boshqalar bilan teng huquqli bo‘lishlariga zamin yaratib berdi. Roza Parks ingliz tilida atirgul bog‘i deb tarjima qilinadi.

5. Youtubeda chiqqan bir reklama qahramoni yil oxiriga yaqin parhez qilayotgani, sartaroshxonaga tashrif buyurishi va bagajlari keng bo‘lgan sport mashinasini sotib olgani ko‘rsatiladi. Ushbu video oxirida ULAR ishsiz qoladi.

Savol: ULAR o’rnidagi bir so’zni yozib bering?

Javob: Bug‘ular.

Qabul: Santa Klaus bug‘ulari.

Izoh: Qorbobo zamon bilan hamnafas yashashga qaror qiladi va bug‘u chanasini hashamatli Audi mashinasiga almashadiradi.

6. Rolling Stones jurnaliga bergen intervyusida qo‘sishchi Mayli Sayrus tug‘ilgan kunidan ko‘p o‘tmay sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi moddalardan voz kechishga qaror qilganini tan oldi.

Savol: O‘sha paytda U qaysi juft sondagi yoshda edi?

Javob: 26.

Izoh: Mayli Klub 27 deb nomlangan klubga kirishdan qo‘rqdi. Chunki Klub 27 ga 27 yoshida vafot etgan mashhurlar kiradi

7. Panamalik bokschi Roberto Dyuran o‘zining shafqatsiz uslubi bilan mashhur edi. Bir marta jangdan keyin u hatto raqibini reanimatsiyaga yuboradi. Intervyuda Dyuran o‘zining yaxshi formada emasligini va kelasi safar to‘g‘ridan-to‘g‘ri Unga yuborishini ta’kidlaydi.

Savol: Uni fransuz tilidan kirib kelgan qisqa so‘zda yozib bering.

Javob: Morg.

Izoh: Jurnalistlardan birining savoliga Dyuran shunday javob berdi: “... Men formada emasdim. Keyingi safar uni to‘g‘ridan-to‘g‘ri morgga ravona qilaman”.

8. Lev Tolstoy shunday deb yozgan: “Agar bizning tanamiz tirik qabrlar bo‘lsa, yer yuzida tinchlik va farovonlik hukmronlik qilishiga qanday umid qilishimiz mumkin?”. Bu bilan Tolstoy insonlarni U bo‘lishga chorlagan.

Savol: Uni ingliz tilidan kirib kelgan so‘zda yozib bering.

Javob: Vegetarian.

Izoh: Tolstoy bizning tanalarimizni o‘ldirilgan hayvonlar dafn qilinadigan tirik qabrlar deb atagan.

9. Bu jonzotni olimlar o‘zga sayyoradan kelgan deb atashadi. Uning bu nom olishiga sabab, qonining rangi ko‘k va ko‘z qorachig‘i to‘rtburchak bo‘lganligi edi.

Savol: Qaysi jonzot?

Javob: Sakkizoyoq.

10. BU ISHni qilishni bildiradigan ingliz tilidagi iborani to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilganda “Fil suyagini qitiqlash” ma’nosini bildirar ekan. Yamaha.com saytida BU ISH ni qilish bilan bog‘liq maqolada avvalo qomatni to‘g‘ri tutish va tuxum ushslash eslab o‘tilgan.

Savol: BU ISHni yozib bering.

Javob: Pianino chalish.

Qabul: Royal chalish.

Izoh: avvallari pianino klavishlari fil suyagidan tayyorlangan. Bu ibora ham shundan qolgan ekan. Pianino qarshisida qomatni tik tutib o’tirish va qo’lni panjada tuxum ushlab turgan kabi tutish tavsiya etiladi. Sayt nomi ham sizni musiqa mavzusiga yetaklagan bo’lsa kerak.

11. Avvallari hindular rangi och kulrang bo‘lgan platinani topib olib, uni “pishib yetilmagan IKS” deb atab uni ko‘mib qo‘yishgan ekan. IKS 79-tartib raqamga ega hisoblanadi.

Savol: IKSni toping.

Javob: Oltin.

12. Muhim qaror qabul qilinishi kerak bo‘lgan 1988-yilgi FIFA kongressi USHBU SANAgan belgilanadi, ba’zilar buni qaror allaqachon chiqarib bo‘linganligining alomati deb hisoblashgan.

Savol: Qaysi sana?

Javob: 4-iyul.

Izoh: Ma’lumki 1994-yilgi Futbol bo‘yicha jahon championati AQSHda bo‘lib o‘tgan. AQSh 1994-yilgi Jahan championati mezbonligi saylovlardan g‘alaba qozonib bo‘lganligini kongress o‘tkazish sanasidan ham anglab olish mumkinligini ta’kidlashgan. 4-iyul Aqsh mustaqillik kuni

II tur

13. Dante Aligherining “Ilohiy komediya”sida, Beatrice bilan jannatda uch rashgan Dante uning yashil ko‘zlarida Oltin griffonning aksini ko‘radi, boshqa bir roman qahramoni ham o‘limidan avval, o‘z armoniga aylangan sevgilisining yashil ko‘zlarini nilufar gullari orasida ko‘radi.

Savol: Siz ushbu qahramonni bir xil harf bilan boshlanuvchi ikki so‘zda yozib bering.

Javob: Severus Sneyp.

Izoh: Severus Sneyp va Lily Potternning sevgisi tarixi Dante Aligheri va Beatrice Portinarilarning muhabbatiga ko‘p jihatdan o‘xshash. Shuningdek, javobni topishingizda yordam tariqasida, uni Nilufar ya’ni Liliya gullari orasida ko‘rganini aytib o’tdik.

14. “Sirg‘aluvchilar” serialidagi ilg‘or jamiyatda davlat muntazam ravishda fuqarolar o‘rtasida lotereya o‘tkazadi, unda g‘oliblarga o‘lim jazosi belgilangan.

Savol: Bu jamiyatda alohida ehtiromga sazovor bo‘lgan olimni toping.

Javob: [Tomas] Maltus.

Izoh: Maltusning nazariyasiga ko'ra, aholi soni geometrik progressiyada, hayot uchun zarur vositalar esa arifmetik progressiyada o'sadi. Yuqorida tilga olingan serialdag'i jamiyatda muvozanat lotereya g'oliblarini yo'q qilish orqali saqlab turilgan.

15. Faylasuf Tomas Gobbs kam umri qolganini va tez orada o'lishini bilgach, do'stlariga oldindan qabrtoshi uchun epitaf yozishlariga ruxsat beradi. Unga eng ko'p yoqqan variant "Haqiqiy ALFA" edi. ALFA ni mashhur franshizaning birinchi qismi nomida ham ko'rishimiz mumkin.

Savol: ALFA ni ikki so'zda yozib bering.

Javob: Falsafa toshi.

Izoh: Faylasufning qabr toshi Haqiqiy falsafa toshi deyilishi unga yoqqan. Garri Potter filmi birinchi qismining nomida ham falsafa toshi so'zini ko'ramiz

16. Bir asardagi yoshi katta qahramonning zaif va ingichka sochlari U bilan qiyoslanadi. Qizig'i shundaki, Uning ildizlaridan vinodan tashqari pivo ham tayyorlash mumkin.

Savol: U o'rnidagi qo'shma so'zni yozib bering.

Javob: Momaqaymoq.

Izoh: Keksa qahramonning oppoq sochlari shunchalik nozik va zaif ediki, uni momaqaymoqqa o'xshatishdi. Mashhur roman nomidan ma'lumki, momaqaymoqdan vino tayyorlashdan tashqari, pivo ishlab chiqarishda ham qo'llaniladi.

17. Bir tarixchining ta'kidlashicha, Qadimgi Misr yuzlab yillar davomida gullab-yashnagan va o'z taraqqiyotini yakunlagandan so'ng IKS kabi birdaniga qulagan. Yaqinda ishlab chiqarilgan yangi turdag'i dron bir necha metr balandlikka ko'tarilib, rangni aniqlash tizimi yordamida IKSni tanlay oladi.

Savol: IKSni 2 so'zda yozib bering.

Javob: Pishgan mevalar.

Izoh: Muallif Misrning to'liq rivojlanishini tugatgandan so'ng to'satdan qulashini mevaning pishganidan so'ng tushishiga qiyoslaydi.

18. Bir kompaniya yaqinda bir turdag'i mashina ishlab chiqardi. Uning nomini "Silver ghost" deb atadi. Uning silver deb nomlanishiga ba'zi detallarning rangi kushumdan bo'lganligi sabab.

Savol: Uning "ghost" ya'ni "arvoh" deb atalishiga sabab nima bo'lgan?

Javob: Ovoz chiqarmasdan yurganligi uchun.

19. Shvetsiya marketlarida ota-onasi bilan kelgan bolalar uchun bepul alohida U qo'yib qo'yilar ekan. Ayrim mutaxassislarning fikricha, agar bola Uni ko'rib, lekin yemasa, qayg'u yoki noumidlik kasaliga yo'liqadi. Bir she'rda u yangi chiqqan oyga qiyoslanadi.

Savol: U nima?

Javob: Banan.

20. 2012-yilda Kaliforniyalik olimlar so‘ngi bir yarim asr davomida mamlakatdagi muzeylarda to‘plangan qushlar patlarining ifloslanish darajasini o‘rganib chiqdilar. Ma’lum bo‘lishicha, USHBU PAYTdagi qushlarning patlari avvalgi va keyingi davrlardan ko‘ra ancha yorqinroq edi.

Savol: USHBU PAYT deganda qaysi davr nazarda tutilmoqda?

Javob: Buyuk depressiya.

Izoh: O’sha paytda sanoat ishlab chiqarish pasayib borayotgan edi, shuning uchun atrof-muhit mo’jizaviy tarzda yaxshilangan ham edi.

21. JAR da o‘qimishli va mehnatkash qora tanli insonlarni X deb atashadi. Bir keng tarqalgan fikrdan farqli o’laroq, X ni danakli deyish to’g’riroq bo’ladi.

Savol: X ni yozib bering.

Javob: Kokos.

Izoh: Hisoblashlaricha, bunday hususiyatlari qora tanli insonlar ichidan oq tanli ekan. Kokosni yong’oq deyish noto’g’ri. U o’rik, olxo’ri va shaftoli kabi danakli meva hisoblanadi.

22. Uni barcha ko‘rgan, ba’zilarda u hozir ham bo‘lsa ajab emas. Uning narxi bir vaqtlar zakotning 1/20 qismigacha baholangan. Uning bir xususiyatiga ko‘ra uchta turi bor.

Savol: Uni yozib bering

Javob: Qalam

Izoh: 20 dinor zakot miqdori bo‘lgan. Ulamolar 1 ta qalamni 1 dinorga sotib olgan vaqtлari bo‘lgan. Qalam qattiqlik darajasiga ko‘ra M, MT, T turlariga bo‘linadi.

23. 2018-yil sentabr oyida suzish bo‘yicha jaxon championi Sun Yan o‘zining doping namunalarini bolg‘a yordamida sindirib tashlagan. Albatta bu voqeadan so‘ng Yan sportdan diskvalifikatsiya qilinadi. Ammo biroz vaqtidan so‘ng u baribir sportga qaytadi. Bu haqidagi maqola nomida 3 so‘zli iborani ko‘rish mumkin.

Savol: Ushbu iborani yzoib bering

Javob: Suvdan quruq chiqdi.

Izoh: Sun Yan suzuvchi va Yan bu qiyin vaziyatdan chiqib, sportga qaytadi.

24. Ushbu savolga jamoalardagi hech bo‘lmasa bir ishtirokchida muddatidan oldin javob chiqadi deb umid qilamiz.

Goldingning bir romanida, juda ham rasvo, chirkin go‘dak haqida so‘z boradi. U shunchalar rasvo ediki , unda faqat IKS toza edi.

Savol: IKS ni bir xil harfdan boshlanuvchi ikki so‘zda yozib bering.

Javob: Bosh barmoq

Izoh: Bilasiz zakovat o‘yinida kimdadir javob plyus bo‘lsa, u bosh barmoq ko‘tarib ishora beradi. Yosh go‘daklar esa ko‘pincha so‘rg‘ich o‘rnida bosh

barmoqlarini ishlatishadi, shu sababli ularning bosh barmoqlari doim toza bo‘ladi.